

MAQSUD SHAYXZODA -BUYUK TARJIMON

Ikramova Feruza Xayrullayevna (Toshkent Davlat Transport Universiteti dotsenti) feruza.ikromova71@gmail.com

Imomova Mohidil Furqat qizi (Toshkent Davlat Transport Universiteti YMAE-7r guruhi talabasi) mohidilimomova05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk dramaturg va faylasuf, Maqsud Shayxzodaning, ijod yo'llari, yozgan asarlari va asosan faoliyati davomida tarjima qilgan asarlari to'g'risida asosiy ma'lumotlar berilgan va ko'rib chiqilgan. Xayoti davomidagi qiyinchiliklarga qaramasdan ijod faoliyatini to'xtatib qo'maganligi, Toshkent shahriga bo'lgan mehrini yozgan dostonlarida ko'rsatib o'tganligi ko'rib chiqilgan. Ayniqsa A.S.Pushkin asarlarini tarjimalari ustida ish olib borgan jarayonlari va kechirmalari namoyon etilgan.

Kalit so'zlar: asar, obrazlar, adabiyot, publististika, to'plam.

Annotation: This article provides and discusses the basic information about the great playwright and philosopher, Maqsud Shaykhzoda, his creative path, the works he wrote and the works he mainly translated during his career. Despite the difficulties of his life, he did not stop his creative work, and expressed his love for Tashkent in his epics. In particular, the processes and apologies that worked on the translations of the works of A.S. Pushkin are shown.

Keywords: work, images, literature, journalism, collection.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u nafaqat shoir va yozuvchi, balki tarjimon sifatida ham katta iz qoldirgan. Uning tarjimashunoslik faoliyati asosan rus va jahon adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga o'girish bilan bog'liq. Shayxzoda rus va jahon adabiyotining ko'plab mumtoz asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. U ayniqsa rus adabiyotining ulkan namoyandalari – Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov, Sergey Yesenin, Vladimir Mayakovskiy asarlarini tarjima qilishga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek,

Shayxzoda jahon adabiyotining ayrim namunalarini ham tarjima qilgan. Jumladan, u Shekspirning ayrim dramalarini, Fors-Tojik adabiyotining yirik namoyandalari – Firdavsiy, Sanoiy, Sa'diy va Hofiz asarlarini ham o'zbek tiliga o'g'irgan. Uning bu tarjimalari milliyadabiyotimiz rivojida muhim rol o'ynagan. Maqsud Shayxzoda shunday ijodkorlardan biriki, ular vafotlaridan keyin ham nafaqat milliy adabiyot xazinasidan joy olgan asarlari, balki ajoyib insoniy fazilatlar va parloq obrazlari bilan ham halq xotirasida abadiy yashaydilar. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, zabardast dramaturg, adabiy faylasufidir.

Shoirning adabiy faoliyati 1929 yildan boshlandi. Uning «O'n she'r» (1932), «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat» to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidan darak berdi. Ulug' Vatan urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarining fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» . «Jang va qo'shiq», «Kapitan Gastello», «Ko'ngil deydiki» kabi she'riy to'plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy drama va boshqa qator publitsistik asarlarini yaratdi. Urushdan keynigi tinch qurilish yillarida Vatanimiz bo'ylab keng quloq yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash shoirning «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak devoni» kabi she'riy to'plamlari uchun asosiy mavzu bo'ldi.

1958 yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishidagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Xassos shoir 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi bilan iste'dodli dramaturg sifatida tanildi. U buyuk inson — Ulug'bek obrazi orqali o'zbek dramaturgiyasida fojea janrining klassik namunasini yaratdi.

1937 yilda ulug' rus shoiri A.S.Pushkinning halok bo'lganiga 100 yil to'lgan. Rus adabiyoti tarixining ana shu fojiali sanasiga 100 yil to'lishi arafasida O'zbekiston hukumati A.S.Pushkinning eng yaxshi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish to'g'risida qaror qabul qilgan. Shu qarorga ko'ra, Toshkent viloyatining eng xushmanzara joyi –

Chimyon tog'larining so'lim etaklarida yettita o'tov tikilib, yetti nafar shoir va adib 1936 yilning mayidan boshlab ana shu o'tovlarda Pushkin asarlarini o'zbek tiliga tarjima qila boshlagan. Bu shoir va adiblar esa quyidagilar edi: Oybek, Elbek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir va Temur Fattoh. 1936 yil bahoridagi Chimyon... Tog' etagidagi o'tovlar. Aksari hali o'ttiz yoshga to'lmagan shoir va adiblar. Va Pushkinning badiiy olami... Oybek o'sha unutilmas kunlarni eslab, bunday yozgan:

“Tabiat manzaralari go'zal, havo yoqimli, qalin, xushbo'y tog' gullari, tiniq tog' irmoqlari. Tinimsiz sayragan bulbullarni sel bo'lib tinglardik. Bular fikrga, yurakka dam berardi. Ba'zan tarjimadan horiganimizda bizga Pushkin asarlari, go'zal tabiat ilhom bulog'i bo'lardi. Bulardan bahramand bo'lib, kichik-kichik she'rlar yozib qo'yardik... Zerikkan va charchagan chog'larimizda baland tog' cho'qqilariga chiqib, sayr etib ketardik. Haybatli, zo'r qoyalar ustida qorlar sekin erir, pastga kichik-kichik irmoqlar sharqirab yo'l olardi. Har kun bir-ikki daf'a O'n ikki buloq boshiga chiqardim. Sevardim yolg'iz kezishlarni. Ayollar olcha, o'rik, olma keltirar edilar. Choyxonada qimiz ichib, askiya qilib o'tirgan vaqtlarimiz yodimda...” Ana shunday fusunkor tabiat bag'rida - ideal ijodiy sharoitda kamalak ranglari yanglig' bir-biriga aslo o'xshamagan yetti shoir va adib Pushkin asarlarini tarjima qila boshladi. Oybek zimmasiga “Yevgeniy Onegin” she'riy romani, Elbekka Pushkinning she'riy ertaklari, Abdulla Qahhorga “Kapitan qizi” qissasi, Hamid Olimjonga “Kavkaz asiri” va “Suv parisi”, Usmon Nosirga “Bag'chasaroy fontani”, Temir Fattohga “Lo'lilar”, Shayxzodaga esa “Mis chavandoz” hamda “Mosart va Saleri” singari she'riy asarlarini tarjima qilish yuklatilgan edi. Insoniyat madaniyati tarixida shunday antiqa voqea boshqa bo'lmagan. Hali rus va, umuman, Yevropa adabiyotidan badiiy tarjima nazariyasi ishlab chiqilmagan, binobarin, bu sohada muvaffaqiyatli tajriba ham bo'lmagan bir davrda, yetti kishi bor-yo'g'i bitta jo'nroq ruscha-o'zbekcha lug'atdan foydalangan holda o'z zimmalariga qo'yilgan vazifani sharaf bilan ado etdilar. Pushkinning asosiy asarlari o'zbek tiliga ilk bor tarjima qilindi. Bu ijodiy jarayon, o'z navbatida, o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga barakali ta'sir ko'rsatdi.

Ana shu qutlug' ijodiy ishga bizning Shayxzoda ham munosib hissa qo'shdi.

Shu narsa ajoyibki, yuqorida nomlari tilga olingan aksar shoirlar, shu jumladan, Shayxzoda iste'dodi xuddi shu yilga kelib, chaman bo'lib ochila boshlagan edi. Shu holat uning Pushkin asarlarini mahorat bilan tarjima qilishida muhim omil bo'ldi. Pushkinning lirik she'rlarini tarjima qilish Mirtemirdan tashqari, Shayxzodaga ham taklif qilingan. U ulug' rus shoirining "Qishloq", "A.P.Kernga ("Yodimdadir u fusunkor, go'zal dam...")", "Anchar – zahar daraxti", "Kavkaz", "Sen uzoq vatanning sohillariga...", "Haykal" kabi mashhur she'rlarini o'zbek she'riyati ohanglariga o'girdi. Ammo uning oldida turgan asosiy vazifa Pushkinning ikki buyuk asari – "Mis chavandoz" dostoni hamda "Mosart va Saleri" kichik dramasini tarjima qilish edi. Bu asarlarning biri rus hayotidan olingan, unda tasvirlangan voqea Pushkin tug'ilgan shahar - Peterburgda bo'lib o'tadi. Ikkinchisi esa jahon musiqiy madaniyati namoyandalari Mosart va Salerining o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan, binobarin, bu asarda tasvirlangan dramatik harakat Avstriya poytaxti Venada kechadi. Bu ikkala asar voqealari garchand birbiridan uzoq bo'lib ko'ringan esa-da, ular zaminida mushtarak g'oya yotadi. Bu, inson taqdirining u yashayotgan muhitga, xususan, muayyan bir kimsaga bog'liqligidir. "Mis chavandoz" "Mosart va Saleri" dramasidan keyin 1833 yil 31 oktabrda Boldino qishlog'ida 22 kunda yozib tugallangan. Pushkin ijodining gultojlaridan biri bo'lgan bu asar uzoq yillar mobaynida rus adabiyotshunoslari tomonidan turlicha talqin etib kelinadi. O'z qarashlariga ko'proq ijtimoiy ruh bergan adabiyotshunoslarning fikriga ko'ra, Pushkin mazkur asarda Pyotr tomonidan olib borilgan islohotlar va bu islohotlarning Pyotrdan keyingi taqdiri haqida bahs yuritgan. Bu fikr bilan munozaraga kirishish - bizning ishimiz emas. Ammo shu narsa aniqki, 1824 yil 7 noyabr kuni Peterburgda sodir bo'lgan dahshatli toshqin ushbu asarning syujet chizig'ini harakatga keltirib, mavjlantirib turadi.

Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassiklarining mahorat maktabidan ta'lim oldi, ilg'or an'analarini o'zida mujassamlashtirgan she'rlar yozdi. Shoirning adabiyot sohasidagi xizmatlari sho'ro hukumati tomonidan taqdirlangan. O'zbek adabiyotining tribun shoirlaridan Maqsud Shayxzoda falsafiy fikrlarga boy hikmatomuz asarlari bilan xalqimiz qalbida abadiy yashaydi. U bir kam oltmish yil

umr ko'rdi va shu davr ichida biz uchun ko'plab asarlar yaratdi.

Adabiyotlar:

1. Naim Karimov "Maqsud Shayxzada: Ma'rifiy-biografik roman".-T.: "Sharq", 2009.
2. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Ozod Sharaffiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent 2004
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 25.01.2020.